**Samarqand viloyati**
**Statistika boshqarmasi**

*E'lon qilish sanasi:*
*25.04.2025-y.*

**PRESS-RELIZ**
*Samarqand viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi*

# Oʻzbekiston Respublikasida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

*2025-yil yanvar-mart oylari uchun*


I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

II. Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini etishtirish

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar


## I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 6 746,5 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 6 371,1 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 271,0 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 9,1 mlrd soʻmni tashkil qildi.

**Oʻzbekiston Respublikasida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati**




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar

Oʻrmon xoʻjaligi

Baliqchilik xoʻjaligi

## II. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (896,1 mlrd soʻm), Ishtixon (624,9 mlrd soʻm), Toyloq (620,9 mlrd soʻm), Pastdargʻom (566,1 mlrd soʻm), Samarqand (532,7 mlrd soʻm) va Oqdaryo (490,7 mlrd soʻm) tamanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on shahri (25,2 mlrd so‘m), Samarqand shahri (31,0 mlrd so‘m) va Narpay tumanini (271,4 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

| | **Hajm mlrd so‘m** | **O‘sish sur’ati % da** |
|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **6 746,5** | **103,9** |
| Samarqand shahri. | 31,0 | 104,6 |
| Kattaqo‘rg‘on shahri | 25,2 | 103,2 |
| Oqdaryo tumani | 490,7 | 104,9 |
| Bulung‘ur tumani | 335,2 | 102,7 |
| Jomboy tumani | 357,3 | 106,4 |
| Ishtixon tumani | 624,9 | 102,5 |
| Kattaqo‘rg‘on tumani | 462,2 | 102,8 |
| Qo‘shrabot tumani | 377,2 | 102,4 |
| Narpay tumani | 271,4 | 104,7 |
| Payariq tumani | 490,3 | 102,8 |
| Patdarg‘om tumani | 566,1 | 103,6 |
| Paxtachi tumani | 355,9 | 101,7 |
| Samarqand tumani | 532,7 | 114,0 |
| Nurobod tumani | 309,4 | 103,0 |
| Urgut tumani | 896,1 | 100,6 |
| Toyloq tumani | 620,9 | 103,7 |

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati tahlil qilinganda, yuqori o‘sish sur’atlari Samarqand (114,0 %), Jomboy (106,4 %), Oqdaryo (104,9 %), Narpay (104,7 %) va Samarqand shahar (104,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Urgut (100,6 %), Paxtachi (101,7 %), Qo‘shrabot (102,4 %), Ishtixon (102,5 %) va Bulung‘ur (102,7 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish

2025-yilning yanvar-mart oylarida etishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 6 371,1 mlrd so‘mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 193,4 mlrd so‘mni (102,0 %), chorvachilik mahsulotlari 6 177,7 mlrd so‘mni (103,7 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (881,7 mlrd so‘m), Toyloq (588,1 mlrd so‘m), Pastdarg‘om (557,8 mlrd so‘m) va Ishtixon (545,0 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on shahri (25,2 mlrd so‘m), Samarqand shahri (25,5 mlrd so‘m) va Jomboy tumani (282,1 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Samarqand (112,8 %), Jomboy (106,9 %), Samarqand shahri (103,5 %) va Narpay (103,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Urgut (100,6 %), Paxtachi (101,5 %) va Qo‘shrabot (102,5 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 86,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,3 % fermer xo'jaliklariga, 2,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (855,8 mlrd so'm), Toyloq (577,8 mlrd so'm), Pastdarg'om (540,8 mlrd so'm), Ishtixon (528,2 mlrd so'm) va Samarqand (496,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Samarqand shahri (24,8 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on shahri (25,1 mlrd so'm) va Narpay tumani (262,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (113,1 %), Jomboy (106,9 %), Samarqand shahar (106,0 %), Narpay (105,3 %) tumanlarida qayd etildi. Urgut (100,5 %), Paxtachi (101,6 %), Qo'shrabot (102,5 %) va Payariq (102,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 72,4 ming tonna go'sht, 304,3 ming tonna sut, 246,5 mln dona tuxum, 28 tonna qirqib olingan jun, 10,3 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 0,4 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, sog'ib olingan sut – 103,0 % ni, olingan tuxum – 116,1 % ni, olingan qorako'l teri – 103,0 % ni hamda ovlangan baliqlar – 100,8 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 13,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 83,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,8 % fermer xo'jaliklari, 90,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

## 2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

| | Yanvar-mart 2025-y. | O‘sish sur’ati % da |
|---|---|---|
| **Go‘sht *(tirik vaznda)*, ming tonna** | **72,4** | **103,4** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 9,4 | 120,7 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 60,2 | 100,7 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,8 | 114,1 |
| **Sut, ming tonna** | **304,3** | **103,0** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 26,8 | 123,6 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 276,6 | 101,2 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,9 | 192,0 |
| **Tuxum, mln dona** | **246,5** | **116,1** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 112,2 | 146,0 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 90,4 | 90,4 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 43,9 | 123,8 |
| **Jun, tonna** | **28** | **0,0** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 28 | 0,0 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 0 | 0,0 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0 | 0,0 |
| **Qorako‘l teri, ming dona** | **10,3** | **103,0** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 0,1 | 126,5 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 8,7 | 101,1 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,5 | 113,6 |
| **Baliq, ming tonna** | **0,4** | **100,8** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 0,3 | 83,3 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 0,0 | 103,0 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,1 | 2,4m |

Shu bilan birga, olingan tuxumning 45,5 % fermer xo‘jaliklariga, 36,7 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 17,8 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 100,0 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 1,3 % fermer xo'jaliklariga, 84,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 14,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 71,8 % fermer xo'jaliklariga, 2,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi**

| | ***Go'sht*** *(tirik vaznda), tonna* | ***Sut,*** *tonna* | ***Tuxum,*** *ming dona* |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **73 434,0** | **304 318,0** | **246 474,0** |
| Samarqand shahri | 263,9 | 478,2 | 7 726,2 |
| Kattaqo'rg'on shahri | 345,0 | 632,4 | 220,0 |
| Oqdaryo tumani | 4 787,2 | 18 117,4 | 12 326,7 |
| Bulung'ur tumani | 3 224,7 | 15 017,1 | 10 603,6 |
| Jomboy tumani | 2 479,8 | 22 663,9 | 13 503,2 |
| Ishtixon tumani | 5 506,7 | 31 481,7 | 6 413,2 |
| Kattaqo'rg'on tumani | 4 432,7 | 28 388,7 | 8 734,5 |
| Qo'shrabot tumani | 4 668,3 | 14 050,5 | 9 847,8 |
| Narpay tumani | 2 579,5 | 16 732,0 | 5 601,1 |
| Payariq tumani | 4 599,4 | 29 013,9 | 8 192,2 |
| Patdarg'om tumani | 6 406,2 | 24 555,4 | 16 360,9 |
| Paxtachi tumani | 3 565,6 | 17 852,2 | 6 892,9 |
| Samarqand tumani | 6 369,8 | 14 844,7 | 104 103,1 |
| Nurobod tumani | 4 295,8 | 8 515,5 | 7 814,7 |
| Urgut tumani | 9 909,5 | 38 551,9 | 15 253,0 |
| Toyloq tumani | 8 999,9 | 23 422,5 | 12 880,9 |

## Dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (25,9 mlrd so'm), Payariq (21,6 mlrd so'm), Bulung'ur (21,1 mlrd so'm), Samarqand (19,2 mlrd so'm) va Paxtachi (19,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri

(0,1 mlrd so‘m), Samarqand shahri (0,7 mlrd so‘m) va Nurobod tumani (2,3 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Bulung‘ur (10,4 m.), Nurobod (108,6 %) tumanlari, Jomboy (108,3 %), Samarqand (105,6 %) va Narpay (103,7 %) tumanlarida qayd etildi. Samarqand shahri (84,8 %), Oqdaryo (95,7 %), Paxtachi (100,7 %) va Kattaqo‘rg‘on (101,2 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi**

| | tonna | o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **2 236,0** | **104,9** |
| Samarqand shahri. | 34,1 | 83,0 |
| Kattaqo‘rg‘on shahri | 0,0 | 0,0 |
| Oqdaryo tumani | 41,4 | 53,5 |
| Bulung‘ur tumani | 20,9 | 110,6 |
| Jomboy tumani | 65,9 | 193,3 |
| Ishtixon tumani | 0,0 | 0,0 |
| Kattaqo‘rg‘on tumani | 0,0 | 0,0 |
| Qo‘shrabot tumani | 10,0 | 105,3 |
| Narpay tumani | 15,0 | 2,4m |
| Payariq tumani | 125,0 | 104,2 |
| Patdarg‘om tumani | 196,6 | 110,3 |
| Paxtachi tumani | 810,5 | 100,5 |
| Samarqand tumani | 560,0 | 110,5 |
| Nurobod tumani | 39,6 | 129,0 |
| Urgut tumani | 268,9 | 103,8 |
| Toyloq tumani | 48,1 | 109,3 |

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Paxtachi tumani (36,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Samarqand (25,0 %), Urgut (12,0 %), Pastdarg‘om (8,8 %), Payariq (5,6 %) va Jomboy (2,9 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Qo‘shrabot (0,4 %), Narpay (0,7 %) va Bulung‘ur tumanida (0,9 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Narpay tumani (2,4 m.), Jomboy tumani (193,3 %), Nurobod tumani (129,0 %), Bulung‘ur tumani (110,6 %), Samarqand (110,5 %), Pastdarg‘om (110,3 %) tumanlari, Toyloq tumani (109,3 %) va Qo‘shrabot tumanida (105,3 %) qayd etildi.

## IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 705,8 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 2,5 % ga ko‘p), sigirlar 713,5ming boshga(1,8 % ga ko‘p), qo‘y va echkilar 2 657,9 ming boshga (2,2 % ga ko‘p), parrandalar 14 588,8 ming boshga (5,7 % ga ko‘p) yetdi.

**2025-yilning 1-aprel holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | Ming bosh | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramollar** | **1 705,8** | **102,5** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 99,5 | 121,7 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 1 599,8 | 101,4 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 6,5 | 115,6 |
| **shundan sigirlar** | **713,5** | **101,8** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 43,9 | 123,4 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 667,0 | 100,6 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,6 | 126,2 |
| **Qo‘y va echkilar** | **2 657,9** | **102,2** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 226,3 | 122,0 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 2 296,7 | 101,1 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 134,9 | 94,1 |
| **Otlar** | **29,3** | **103,8** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 4,7 | 123,6 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 24,0 | 100,9 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,5 | 92,4 |
| **Parrandalar** | **14 588,8** | **105,7** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 5 784,7 | 110,3 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 5 975,1 | 100,2 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi | 2 829,0 | 109,3 |

tashkilotlar

2025-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,8 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 0,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,1 % fermer xo‘jaliklariga, 93,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 0,4 % ni qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, shuningdek, qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 8,5 % fermer xo‘jaliklariga, 86,4 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 39,7 % fermer xo‘jaliklariga, 41,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 19,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

**2025-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | Yirik shoxli qoramollar | Qo‘y va echkilar | Parrandalar |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **1 705,8** | **2 657,9** | **14 588,8** |
| Samarqand shahri. | 6,7 | 7,1 | 294,1 |
| Kattaqo‘rg‘on shahri | 9,3 | 8,8 | 19,3 |
| Oqdaryo tumani | 91,7 | 49,5 | 839,3 |
| Bulung‘ur tumani | 118,6 | 169,9 | 778,5 |
| Jomboy tumani | 122,8 | 163,8 | 1 192,6 |
| Ishtixon tumani | 145,8 | 111,3 | 871,6 |
| Kattaqo‘rg‘on tumani | 126,2 | 145,8 | 766,2 |
| Qo‘shrabot tumani | 108,5 | 391,7 | 599,1 |
| Narpay tumani | 111,1 | 89,9 | 358,6 |
| Payariq tumani | 115,6 | 126,8 | 564,3 |
| Patdarg‘om tumani | 214,6 | 193,3 | 798,6 |
| Paxtachi tumani | 100,6 | 214,4 | 316,3 |
| Samarqand tumani | 53,7 | 137,8 | 3 684,9 |
| Nurobod tumani | 82,0 | 657,9 | 456,1 |
| Urgut tumani | 192,5 | 117,5 | 600,5 |
| Toyloq tumani | 106,3 | 72,5 | 2 448,8 |

## V. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o‘z iste’moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo‘jaligida, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot etishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo‘jaligi** – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektidir.

**Dehqon xo‘jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan er uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo‘jaligi a’zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo‘jalikdir.

**Tomorqa xo‘jaligi** – shaxsiy tomorqa er uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun etishtirish (qayta ishlash) bilan bog‘liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

**Go‘sht yetishtirish** – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog‘ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

**Metama’lumot uchun havola:**

https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2

**Tayyorlash uchun mas’ul:**
Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

**Ijrochi:**
Z. Ergashev
66 235-22-01 (3111)

**Manzil:**